

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI



**BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ZAMONAVIY
TENDENTSIYALARI:
TA'LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASI**

**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ НАЧАЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ:
ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ**

**MODERN TENDENCIES OF PRIMARY EDUCATION:
INTEGRATION OF EDUCATION AND TRAINING**

**“BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ZAMONAVIY
TENDENTSIYALARI:
TA'LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASI”
III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi
Jizzax shahri, 2023 yil 4 may**

**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:
ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И
ОБУЧЕНИЯ»**
**III Международная научно-практическая
конференция**
Джизак, 4 мая 2023 г.

**“MODERN TRENDS IN PRIMARY
EDUCATION:
INTEGRATION OF EDUCATION AND
TRAINING»**
III International scientific-practical conference
Jizzakh city, May 4, 2023

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР
ВАЗИРЛИГИ**

А.ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ

**“БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ: ТАЪЛИМ ВА
ТАРБИЯ ИНТЕГРАЦИЯСИ”**

III Халқаро илмий-амалий конференцияси

Жиззах шаҳри, 2023 йил 4 май



**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ИНТЕГРАЦИЯ
ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ»**

III Международная научно-практическая конференция

Джизак, 4 мая 2023 г.



**“MODERN TENDENCIES OF PRIMARY EDUCATION: INTEGRATION OF
EDUCATION AND TRAINING”**

III International scientific-practical conference

Jizzakh city, May 4, 2023



Жиззах – 2023

standartlarini, "Bolalarni mакtabga tayyorlash" fani va boshqalarni puxta egallagan bo'lishi lozimdir. Ayniqsa, bolalarni mакtab ta'limga tayyorlangan tarzda tarbiyalash "Bolalarni mакtabga tayyorlash" fanining o'rni juda kattadir. Bolalarni rivojlantirish va mакtab ta'limga tayyorlash bosqichlari. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, asosan, mакtab ta'limga mакtabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va mакtab ta'limga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi. 1. Bolalarni nutqini rivojlantirish. 2. Jismonan rivojlantirish. 3. Ma'nан rivojlantirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qо'yiladigan davlat talablari sog'lom va yetuk, mакtabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir. "Bolalarni mакtab ta'limga tayyorlash metodikasi" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. "Bolalarni mакtabga tayyorlash metodikasi" fani ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o'rganar ekan, falsafa fani bilan chambarchas bog'liqdir, chunki falsafa tarbiyaning maqsad va vazifalarini o'rganish metodologiyasini belgilaydi. Didaktik masalalarni ishlab chiqishda bilish nazariyasiga, axloqiy tarbiya masalalarini o'rganishda etikaning axloq to'g'risidagi ta'limotiga, tarbiyaning maqsadini, yo'llarini, metodlarini belgilashda etika faniga asoslanadi. Har qanday darsning asosiy vazifasi - uni faol o'quv faoliyatiga kiritish asosida bolada ma'lum bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ushbu muammoni hal qilish jarayonida o'qituvchi turli xil usul va usullardan foydalanadi: tushuntirish, namoyish qilish, savollar va hk. Shuni ta'kidlash kerakki, ulardan faqat to'g'ri foydalanish bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya muammolarini samarali hal qilishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bola faqat biron bir darajada uni qiziqtiradigan, zavq bag'ishlaydigan, tasavvur va hissiyotlarga ta'sir qiladigan narsaga katta qiziqish bildiradi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni dars mazmuniga qiziqtirishi, uni amaliy faoliyat bilan bog'lashi kerak.

Kognitiv vazifalar axloqiy va irodaviy fazilatlarni shakllantirish vazifalari bilan birlashtirilib, ularni hal etish bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi: kognitiv qiziqish bolani faol bo'lishga undaydi, qiziqishni rivojlantiradi va qat'iyatlilik, mehnatsevarlik qobiliyatini ta'sir qiladi faoliyatning sifati, buning natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar o'quv materialini qat'iy egallaydilar. Ko'pincha bu rolli o'yin, didaktik o'yin paytida yuz beradi. Ushbu o'yinlarning mакtabga tayyorgarlikdagи ahamiyatini deyarli baholab bo'lmaydi. Rolli o'yinlar bo'lajak talabaning shaxsiyatiga keng umumiy rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi va qoidalar, didaktik o'yinlar o'quvchilarning bo'lajak ta'lim faoliyati va xatti-harakatlari bilan bevosita bog'liqdir. O'yinlarda modellashtirishning bir turi amalga oshiriladi, bola kelajakdagi ta'lim faoliyatiga juda yaqin bo'lgan vaziyatlarni va harakatlarni o'ynaydi, ya'ni o'yinda bola to'g'ridan-to'g'ri ta'limning yangi bosqichiga o'tishga tayyorlanadi - mакtabga kirish .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'Y XATI :

1. Asqarova Dilorom Qurbonovna ; BOLALALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH METODIKASI

2. Babayeva U.-Bolalar nutqini o'stirishi va metodikasi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NOTIQLIK KO'NIKMASI ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

Qarshiboyeva Xurinisa Karimovna

Бошлангич таълим методикаси кафедраси ўқитувчи

+99897-6164461, xurinisa.qarshiboyeva@cspi.uz

Chirchiq davlat pedagogikasi universiteti o'qituivchisi

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining notiqlik san'ati asoslarini o'rganishlari va bu narsaning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье говорится об обучении будущих учителей начальных классов основам публичного выступления и его значении в профессиональной деятельности.

Annotation: The article is about future elementary school teachers learning the basics of public speaking and its importance in their professional activity

Ma'lumki, notiqlik san'atiga ega bo'lish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari tarkibiga kiradi. Nutq o'zi nima? Notiqlik madaniyati nima? Notiqlik madaniyatining o'qituvchi faoliyatida qanday ahamiyati bor? Bugun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituivchilarida qanday qilib notiqlik san'ati ko'nikmalarini hosil qilish mumkin?

Inson hayoti jamiyatdagi muomala va muloqlardan iborat ekanligini yaxshi his qilamiz. Bu narsa ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun nihoyatda zarur bo'lgan kasbiy kompetensiya tarkibiga kiradi. Chunki o'quvchilar qalbi avvalo pedagogning so'z san'ati, nutq madaniyati bilan zabit etiladi. Pedagog o'z faoliyatida muvaffaqiyat bilan ilgari yurish uchun notiqlik san'atini puxta egallamog'i lozim.

Muomala va muloqot – bu muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Bu borada ba'zi faktlarni ko'rib chiqamiz. Karnegi fondi himoyasida o'qituvchilar malakasini oshirish maqsadida o'tkazilgan tadqiqot juda muhim va ko'p qirrali dalillarni ochib berdi. Keyinchalik Karnegi texnologik insituti tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot buni yana bir bor tasdiqladi [1]. Bu qanday tadqiqot edi?

Moliyaviy va ijtimoiy munosabatlarda xatto soha mutaxassislari ham muvaffaqiyatga o'zlaridagi o'n besh foiz bilimlar bilan va qolgan yetmish besh foiz muvaffaqiyatga esa hamkasblari va hamkorlari bilan muomala va muloqot jarayonida erishar ekan. Bundan ko'rindaniki, muvaffaqiyatning katta qismi insonning nutq madaniyatiga bog'liq ekan.

Haftasiga 50 yoki 75 \$ dan to'lab oddiy muhandis, hisobchi, me'mor yoki istalgan soha mutaxassislarin topish muammo emas. Bunday mutaxassislar juda ko'p. Amerikalik mashhur Jan J. Rokfeller " Odamlar muomala qilish uquvi ham bamisol mahsulotga o'xshaydi, uni ham biz xuddi qand yoki qahva kabi sotib olamiz...Men xuddi shunday uquv uchun dunyodagi hamma mahsulotlardan ham ko'proq haq to'lashga tayyorman" degan edi. Demak, oliv pedagogik ta'lim muassasalarida shu o'quv yilidan o'qitila boshlangan ART texnologiya kreativlik fani o'z dasturiga hayot uchun zarur bo'lgan eng kerakli qobiliyatni – so'z san'atini, notiqlik san'atini kiritgani bejizga emas.

Jahonga mashhur Deyl Karnegi dunyodagi barcha davrlarning ulug' kishilari boshqalar bilan qanday muloqot qilganini, Yuliy Sezardan Tomas Edisongacha bo'lgan mashhur shaxslarning hayotiy yozishmalarini, Teodor Ruzveltning yuzdan ortiq tarjimai hollarini o'rganib chiqqan va tajribalar asosida quyidagi haqiqatni, ya'ni insonlar uchun eng muhim narsa *do'st orttirish va boshqalarga amaliy ta'sir o'tkazish* ekanligini aniqladi [2]. E'tibor bering, o'quvchilarga ham bilim va tarbiya aynan **amaliy ta'sir** orgali beriladi. Shuning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari so'z san'atini mukammal o'rganishlari, doimo o'z ustlarida ishlashlari, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lib borishlari kerak. Keling, endi biz muomala va muloqot jarayonida juda ko'p yuzma-yuz keladiganimiz, ya'ni tanqid haqida to'xtalamiz. *Tanqid o'zi nima?* Bu sizga asal kerak bo'la turib, asalari qutisini uloqtirish degani. Siz asal yig'moqchi bo'lsangiz asalari qutisini uloqtirmang!

Tanqid insonlarga kutilganidan aksicha ta'sir qiladi. Tanqid shuning uchun *foydasizki*, u odamlarni o'zini himoya qilishga yoki odatda, oqlashga majbur etadi. Tanqid shuning uchun *xayfliki*, u shaxsnинг izzt-nafsiга zarba bo'lib tushadi, uning g'ururiga tegadi. Siz esa insonlar bilan suhbatlashar ekansiz biror kishini tarbiyalab, uni tuzatish yoki kamolga yetkazishni xohlaysiz, to'g'rimi? Juda yaxshi! Ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari har so'zi, ko'z qarashi, xatto ovoz ohanglari bilan ham o'quvchilarni tarbiyalay olishlari lozim [3]. Ular murg'ak qalb egalari bilan tanqidiy munosabatga kirishsa ijobjiy natijaga ega bo'la olmaydilar. Nafaqat bolalar, har kim bilan muomala qilishda tanqiddan ehtiyyot bo'ling. Odamlar bilan muloqotda shuni yoddan chiqarmang: eng kamida, siz mantiqiy fikr yuritadigan, hissiyotlarga beriluvchan, ba'zan hurofotga mukkasidan ketgan, manman, o'ziga bino qo'ygan kishi bilan ish ko'ryapman deb tasavvur qiling.

Tanqid esa uchqunga o'xshaydi, u manmanlikning poroxli uyumida portlab ketishi mumkin. Masalan, Angliyaning romannavis adiblaridan biri bo'lgan Tomas Hardi tanqid

tufayli bir umr belletrik asarlar yozishdan voz kechishga majbur bo'ldi. Tanqid ingliz shoiri Tomas Chattertonni o'z joniga qasd qilishiga qadar olib keldi.

Tanqid o'rniغا go'zal muomala orqali ta'sir etish ancha samaraliroq hisoblanadi. Tarixga bir nazar solaylik. Yoshligidan ancha to'pori bo'lgan Benjamin Franklin o'z ustida ishlab shunchalik shirinso'z va mohir kishiga aylandiki, natijada u Amerikaning Fransiyadagi elchisi etib tayinlandi. U o'z muvaffaqiyati haqida "Men hech qachon birovni yomonlab hunuk gap aytmayman, har bir odam haqida uning yaxshi tomonlarini aytaman." degan edi.

Kimnidir tanqid qilishdan ko'ra inson o'z xatolarini tuzatsa jamiyat yaxshi insonlar bilan to'lган bo'lardi. Kimnidir tanqid qilish kerak bo'lsa nega bu ishni o'zimizdan boshlamasligimiz kerak? Konfutsiy shunday degan edi: "Qo'shningizni tomi qordan tozalanmaganini shikoyat qilishdan oldin o'zingizning bo'sag'angizdagи qorni kurab tashlang. Axir siz, bo'lajak boshlang'ich o'qituvchilari, kelajakda o'quvchilarni notiqlik san'ati sirlarini egallahga o'rgatishingiz kerakku! Chunki notiqlik san'ati – bu hayotning barcha jabhasida muvaffaqiyatga erishishning oltin kaliti hisoblanadi [4]. Biror insonni tanqid qilish o'rniغا ular nega aynan shunday ish tutishgani haqida o'ylab ko'raylik, tushunishga harakat qilaylik. Ishoning, bu usul ancha foydali va qiziqarli bo'lib, insonda atrof-muhitga g'amxo'rlik, sabrlilik, bag'rikenglik odatlarini tarbiyalaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham amaliy ta'sir etish sirlarini o'rganib, tanqid o'rniغا hushmuomalalik fazilatlarini egallab, pedagogik amaliy faoliyatda muvaffaqiyat sari olg'a borishlari kerak bo'ladi. Bu bilan o'z ustida ishslash kompetensiyalari samarali shakllanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.D.Karnegi "Muvaffaqiyat sirlari" Toshkent, "Yangi asr avlod", 2015
- 2.Deyl Karnegi "Nutq nima? Notiq kim? "Nasaf" nashriyoti, 2011
3. Mavlonova R., O. To'rayeva, Xoliqberdiyev K. Pedagogika "O'qituvchi" nashriyoti 2008
- 4.Tashpulatova D. M. Халқаро таълим дастурлари асосида интеграцион ўқитиши механизmlари. Образование, наука и инновационные идеи в мире Международный научный электронный журнал №18 выпуск 3 апрель- 2023

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINI STRATEGIK BOSHQARISH TIZIMI

B.A.Xo'jaqulov TDPU.

Kalit so'zlar: o'rta ta'lism, ketma-ketlik, kognitiv, maqsadli komponent, bilim, ko'nikma, strategik boshqaruv, ta'lism- tarbiya.

Ключевые слова: среднее образование, последовательность, познавательный, целевой компонент, знания, умения, стратегическое управление, образование.

Key words: secondary education, sequence, cognitive, target component, knowledge, skills, strategic management, education.

Ta'lism muassasasini boshqarish mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan vazifalarning bajarilishini, ya'ni ta'lism-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, ta'lism-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun moddiy-texnik bazani yaratish va mustahkamlab borish, mazkur jarayonni yangi pedagogik va axborot texnologiyalari yukori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Boshqaruv faoliyatining mazmun-mohiyati boshqaruv strategiyalarni amalga oshirishda o'z ifodasini topadi va ular birgalikda boshqaruv jarayonida ta'sir ko'rsatishning tartibi, ketma-ketligi, ularning tugallanish davrini aks ettiradi. Boshqaruv faoliyati - bu boshqaruv jarayonida qabul qilinayotgan qarorlarning yo'nalishini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan tizimdir. Ta'lism muassasalari faoliyatini takomillashtirish, ta'lism-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini

Ф.А.Раҳматова. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг илмий тадқиқотчилик компетенцияларининг шаклланганлик мезони ва кўрсаткичлари.....	85
Султанова Ш.С., Маматов Д. Ихтисослаштирилаган мактабгача ва мактаб таълим вазирлиги қошидаги президент мактаб ўқувчиларида ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришда маънавий тарбия, соғлом психологик муҳит ва ҳамкор-оиланинг роли.....	88
To‘ychiboyeva S.A. Boshlang’ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Jumayeva O.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarni uzlusiz ekologik ta‘lim-tarbiyalashning pedagogik konseptual asoslar.....	93
Жабборова О.М. Сапарбаева Д.Т. Бошланғич таълимнинг янги функциялари.....	95
G.A.Xolboyeva. M.Anorboeva. Boshlang’ich sinf o‘quvchilariga badiiy matnni shakllantiruvchi vositalarni qitishda o‘omonim, antonym, sinonim va paronimlarni o‘rgatish usullari	98
Jabbarova Z.O. Boshlang’ich ta’limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari.....	101
Tilavova S.B. Bo‘lajak boshlang’ich ta’lim o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini STEAM yondashuv asosida takomillashtirish	105
Карпунина В.А. Деятельностный подход при изучении уравнений в начальной школе.....	107
Ивахненко Т.А. Учебное исследование как вид творческой деятельности младших школьников.....	110
Лутфуллина Ю. Формирование у младших школьников умения решать текстовые задачи.....	113
Bo‘ltakov S.X. Siviltatsion pedagogik tizimlar negizida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashning o‘qitish majmularini ishlab chiqish.....	114
Qosimova F.B. Boshlang’ich sinf matematika darslarida harakatga doir masala ustida ishslash uslubiyoti.....	117
Barakayev M. Shamshihev A. Nasritdinov M. Maktab matematika kursida matematik mantiq elementlari o‘rgatish zarurati.....	119
Mirzayeva A.M. Boshlang’ich sinf o‘qish darslarida badiiy asar matni ustida ishslash uslubiyoti.....	121
Xoliqov U.Q. “FARZIN” mavzusida boshlang’ich sinflar uchun dars ishlanmasi.....	123
Mastura A.A. Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang’ich sinf musiqa ta’limi o‘qituvchisi faoliyatiga qo‘yilgan talablar.....	128
Astanakulova N.U. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogik-psixologik uzviylik va uzlusizlik.....	130
Ismatova Z.A. Aslonova M.H. Nematullayeva Z.Z. Vizual ta’limning ahamiyati..	133
Olimova A.Q. Emotsional kompetentligining ta’lim jarayoniga ta’siri.....	135
Abrorxonova K.A. Djo‘rayeva M.K. Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini nutqini o‘stirishda badiiy adabiyotning ahamiyati.....	136
Yuldasheva M.A. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorgarligi.....	139
Qarshiboyeva X.K. Bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilarida notiqlik ko’nikmasi asoslarini shakllantirish.....	141
B.A.Xo‘jaqulov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarini strategik boshqarish tizimi.....	143
Alimov A.Y. Malikova L.F. Matematika darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari.....	145